Hududiy raqobatbardoshlik va sanoat klasterlari boʻyicha taniqli tadqiqotchi Ch. Ketels sanoat hududlarining muvaffaqiyati alohida korxonalarning samaradorligiga emas, balki ular faoliyat yuritayotgan biznes ekotizimning rivojlanganlik darajasiga bogʻliqligini taʼkidlaydi [6]. Olimning fikricha, zamonaviy sanoat zonalarida raqobat ustunligi infratuzilma obyektlarining soni bilan emas, balki ularning funksional diversifikatsiyasi va oʻzaro uygʻunligi orqali shakllanadi. Ketels klasterlar rivojlanishini tahlil qilar ekan, sanoat zonalarida transport, logistika, moliyaviy xizmatlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, konsalting kompaniyalari va malakali mehnat bozori bir-birini toʻldiruvchi yagona tizim sifatida ishlashi zarurligini asoslaydi. Uning ilmiy qarashiga koʻra, infratuzilmaning har bir elementi alohida iqtisodiy qiymat yaratmaydi, balki ular oʻrtasidagi kooperatsiya va bilim almashinuvi yuqori qoʻshilgan qiymatni shakllantiradi. Shu sababli sanoat zonalarini boshqarishda infratuzilma obyektlarini koʻpaytirish emas, balki ularning oʻzaro bogʻliqligini kuchaytirish ustuvor vazifa boʻlishi lozim. Olim, shuningdek, klasterlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi infratuzilmaning innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash qobiliyati bilan belgilanishini qayd etadi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish sanoat zonalarining strategik rivojlanish omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish va sanoat klasterlarining innovatsion salohiyatini tadqiq etgan M. Delgado tadbirkorlik infratuzilmasining diversifikatsiyasini hududiy iqtisodiy oʻsishning asosiy institutsional omillaridan biri sifatida baholaydi [7]. Uning ilmiy izlanishlarida klasterlarning yuqori samaradorligi ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar, venchur kapital institutlari, konsalting xizmatlari, texnologiyalar transferi markazlari va ishlab chiqarish korxonalari oʻrtasidagi uzviy hamkorlik bilan izohlanadi. Delgado taʼkidlashicha, tadbirkorlik infratuzilmasining tarkibiy qismlari qanchalik diversifikatsiyalashgan boʻlsa, hududning yangi korxonalarni tashkil etish, innovatsiyalarni joriy etish va yuqori malakali kadrlarni jalb etish salohiyati shunchalik yuqori boʻladi. Olimning yana bir muhim xulosasiga koʻra, sanoat zonalarining raqobatbardoshligini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki eksport koʻrsatkichlari emas, balki biznes xizmatlari sifati, innovatsion infratuzilma, moliyalashtirish imkoniyatlari va tadbirkorlik ekotizimining rivojlanish darajasi ham kompleks mezon sifatida qoʻllanishi zarur. Delgado ushbu yondashuv orqali hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim vositasi sifatida diversifikatsiyalashgan infratuzilma modelini ilgari suradi.

H. Yeung global ishlab chiqarish tarmoqlari konsepsiyasini rivojlantirar ekan, sanoat hududlarining muvaffaqiyati ularning xalqaro ishlab chiqarish va qiymat zanjirlariga qanchalik chuqur integratsiyalashganligi bilan belgilanishini ilmiy jihatdan asoslaydi [8]. Olimning fikricha, zamonaviy sanoat zonalarida raqobat ustunligi arzon resurslar yoki fiskal imtiyozlar hisobiga emas, balki biznes ekotizimning moslashuvchanligi, logistika tizimlarining samaradorligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi hamda mahalliy korxonalarning global kompaniyalar bilan texnologik hamkorlik oʻrnatish imkoniyatlari orqali shakllanadi. Yeung taʼkidlashicha, infratuzilmani diversifikatsiya qilish korxonalarga faqat ishlab chiqarish faoliyatini emas, balki ilmiy izlanishlar, dizayn, marketing, sertifikatlashtirish va eksport operatsiyalarini ham bir hududda amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa qiymat zanjirida yuqori bosqichlarga koʻtarilish va mahsulotning qoʻshilgan qiymatini oshirishga

xizmat qiladi. Olim, shuningdek, hududiy boshqaruv organlari sanoat zonalarida universitetlar, xususiy sektor, ilmiy markazlar va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi institutsional mexanizmlarni shakllantirishi zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish sanoat zonalarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil ekanligini ko'rsatadi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy murakkablik nazariyasining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan R. Hausmann sanoat rivojlanishining asosiy omili sifatida mamlakat yoki hududning bilimlar bazasi va ishlab chiqarish kompetensiyalarini ko'rsatadi [9]. Uning fikricha, iqtisodiy taraqqiyot yangi resurslarni yaratish emas, balki mavjud bilimlar, texnologiyalar va institutsional imkoniyatlarning samarali kombinatsiyasini shakllantirish orqali yuz beradi. Hausmann sanoat zonalarini aynan shunday kombinatsiyalar yuzaga keladigan iqtisodiy makon sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, diversifikatsiyalashgan tadbirkorlik infratuzilmasi korxonalarning murakkab texnologiyalarni o'zlashtirishini, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishini va eksport nomenklaturasini kengaytirishini tezlashtiradi. U iqtisodiy murakkablikning o'sishi ilmiy-tadqiqot markazlari, texnologiyalar transferi institutlari, malakali inson kapitali, moliyaviy xizmatlar va logistika infratuzilmasining o'zaro integratsiyasi bilan chambarchas bog'liqligini ilmiy asoslaydi. Hausmannning qarashlariga ko'ra, sanoat zonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishning o'zi yetarli emas; ularni yuqori bilim sig'imiga ega infratuzilma elementlari bilan bog'lash zarur. Aynan shunday yondashuv korxonalarning innovatsion salohiyatini kuchaytiradi va hududning iqtisodiy murakkabligini oshiradi.

Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya masalalarini chuqur tadqiq etgan B. Xodiyev tadbirkorlik infratuzilmasining zamonaviy modeli innovatsion xizmatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual kapital bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [10]. Olimning fikricha, sanoat zonalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun an'anaviy ishlab chiqarish infratuzilmasidan tashqari, texnologik konsalting, startap ekotizimi, biznes-inkubatorlar, ilmiy laboratoriyalar va raqamli platformalarni rivojlantirish zarur. Xodiyevning ilmiy yondashuvida diversifikatsiyalashgan infratuzilma korxonalarning innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlarini yagona iqtisodiy makonga birlashtiruvchi strategik omil sifatida baholanadi.

Rossiyalik iqtisodchi A. Granberg hududiy iqtisodiyot va makoniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqishda infratuzilmaning hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashdagi roliga alohida e'tibor qaratadi [11]. Olimning fikricha, hududning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilangina belgilanmaydi; transport, kommunikatsiya, logistika va biznes xizmatlari tizimining rivojlanganligi hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Granberg sanoat zonalarida infratuzilma tarmoqlarini kompleks rivojlantirish ishlab chiqarish klasterlari shakllanishini tezlashtirishi, korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani mustahkamlashi va hududning investitsion jozibadorligini oshirishini ilmiy asoslaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, diversifikatsiyalashgan infratuzilma iqtisodiy makonning funksional yaxlitligini ta'minlaydi va hududiy rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Qozog'istonlik olim A. Satubaldin sanoatni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanish bo'yicha tadqiqotlarida tadbirkorlik infratuzilmasini iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas elementi sifatida baholaydi [12]. Uning fikricha, sanoat zonalarida logistika markazlari, innovatsion markazlar, texnologik parklar, moliyaviy institutlar va ilmiy tashkilotlarning o'zaro integratsiyasi korxonalarning bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini oshiradi. Satubaldin, shuningdek, infratuzilma xizmatlarini diversifikatsiya qilish yangi texnologiyalarni joriy etish sur'atini tezlashtirishini, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishini va kichik hamda o'rta biznesning sanoat kooperatsiyasidagi ishtirokini kengaytirishini ta'kidlaydi. Olimning xulosalariga ko'ra, sanoat zonalarining barqaror rivojlanishi ko'p funksiyali biznes infratuzilmasini shakllantirish va uni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish masalasi turli ilmiy maktablarda turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning barchasi sanoat zonalarining raqobatbardoshligini oshirishda infratuzilmaning strategik ahamiyatini e'tirof etadi. Ularning tadqiqotlarida tadbirkorlik infratuzilmasining diversifikatsiyasi logistika, ilmiy-tadqiqot markazlari, venchur kapital institutlari, universitetlar, raqamli platformalar va konsalting xizmatlarining yagona biznes ekotizim sifatida faoliyat yuritishi orqali izohlanadi. Mazkur olimlarning umumiy xulosasiga ko'ra, infratuzilma elementlari o'rtasidagi funksional uyg'unlik innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, transaksion xarajatlarni kamaytiradi va korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobat ustunligini mustahkamlaydi. Shuningdek, ular sanoat zonalarini alohida ishlab chiqarish hududi emas, balki bilimlar, texnologiyalar va kapital oqimlari kesishadigan murakkab iqtisodiy makon sifatida talqin qiladilar. Shunday qilib, adabiyotlar sharhi natijalari tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish sanoat zonalari raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim strategik omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish orqali sanoat zonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qoʻllanildi. Shuningdek, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya, sintez, grafik-taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilib, tadbirkorlik infratuzilmasining logistika, innovatsion, moliyaviy, institutsional va raqamli tarkibiy qismlarining sanoat zonalari raqobatbardoshligiga taʼsiri kompleks baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki, sanoat zonalarining raqobatbardoshligini taʼminlashda infratuzilmaviy obyektlarni koʻpaytirishning oʻzi yetarli emas. Eng yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi logistika, ilmiy-tadqiqot markazlari, moliyaviy institutlar, raqamli boshqaruv tizimlari, eksportni qoʻllab-quvvatlash xizmatlari va innovatsion ekotizim bilan kompleks integratsiyalashtirilgan. Aynan shu omil sanoat zonalarini oddiy ishlab chiqarish hududidan yuqori qoʻshilgan qiymat yaratuvchi iqtisodiy platformaga aylantiradi.

Markaziy Yevropadagi eng muvaffaqiyatli modellardan biri Polsha investitsiya zonalari hisoblanadi. 2018-yildan boshlab mamlakat maxsus iqtisodiy zonalarni yagona milliy investitsiya tizimiga transformatsiya qildi. Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, investitsiya imtiyozlari endilikda faqat maxsus hududlar bilan cheklanmay, butun mamlakat boʻylab yangi sanoat loyihalariga tatbiq etildi. Natijada infratuzilma faqat ishlab chiqarish maydonlari emas, balki biznes xizmatlari, ilmiy markazlar, logistika va mahalliy taʼminot zanjirlari bilan uzviy bogʻlangan yagona iqtisodiy makon sifatida rivojlantirildi. 2024-yil yakunlariga koʻra, Polsha investitsiya zonalari doirasida 551 ta davlat yordami toʻgʻrisidagi qaror qabul qilinib, investorlar tomonidan 15,5 milliard zlotiydan ortiq investitsiya kiritish majburiyati olingan hamda 4 mingdan ortiq yangi ish oʻrni yaratish rejalashtirilgan. Eʼtiborga molik jihati shundaki, qabul qilingan qarorlarning 72 foizi mikro, kichik va oʻrta biznes subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan [13]. Bu koʻrsatkich infratuzilma diversifikatsiyasi yirik korxonalardan tashqari kichik biznesning ham sanoat zonalaridagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirayotganini koʻrsatadi.

Polsha tajribasining yana bir muhim jihati sanoat zonalarini universitetlar, texnologik parklar va biznesni rivojlantirish agentliklari bilan integratsiyalashgan holda boshqarishidir. Bugungi kunda “Katowice”, “Kraków”, “Łódź” va “Pomeranian” iqtisodiy zonalarida ishlab chiqarish korxonalari bilan bir qatorda ilmiy laboratoriyalar, startap akseleratorlari, muhandislik markazlari va eksport konsalting kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Bunday koʻp tarmoqli infratuzilma korxonalarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, xalqaro investitsiyalarni jalb etish jarayonini tezlashtirmoqda.

Janubi-Sharqiy Osiyoda esa Malayziya sanoat infratuzilmasini diversifikatsiya qilish boʻyicha eng muvaffaqiyatli davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda sanoat hududlari faqat ishlab chiqarish maydonlari emas, balki elektronika, yarimoʻtkazgichlar, logistika, moliyaviy xizmatlar, ilmiy tadqiqotlar va raqamli iqtisodiyot elementlarini oʻzida mujassamlashtirgan kompleks sanoat ekotizimi sifatida rivojlantirilmoqda. Ayniqsa, Penang, Johor va Selangor hududlaridagi sanoat parklarida universitetlar, xalqaro kompaniyalar va innovatsion markazlar oʻrtasidagi hamkorlik yuqori darajada yoʻlga qoʻyilgan. Malayziya Investitsiyalarni rivojlantirish agentligi maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilda mamlakatda tasdiqlangan investitsiyalar hajmi 426,7 milliard ringgitni tashkil etgan boʻlib, bu 2024-yildagi 384,4 milliard ringgitga nisbatan sezilarli oʻsishni anglatadi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 207,1 milliard ringgitga yetgan, ishlab chiqarish sektori esa investitsiyalarning eng yirik yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolgan [14]. Mazkur natijalarga sanoat parklarida logistika, muhandislik, ilmiy-tadqiqot va raqamli infratuzilmaning kompleks rivojlantirilgani muhim omil sifatida baholanmoqda.

Malayziya tajribasi shuni koʻrsatadiki, infratuzilmani diversifikatsiya qilish faqat kapital qoʻyilmalarni oshirish bilan cheklanmaydi. Mamlakatda sanoat zonalarida “one-stop investment centre” tamoyili asosida yer ajratish, bojxona, litsenziyalash, eksportni rasmiylashtirish, bank xizmatlari va innovatsion konsalting yagona platformaga integratsiyalashtirilgan. Natijada investorlarning maʼmuriy xarajatlari kamaygan, loyihalarni amalga oshirish muddati qisqargan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish tezlashgan. Bu tajriba sanoat zonalarida tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilishning nafaqat iqtisodiy, balki institutsional samaradorligini ham namoyon etadi.

Yaqin Sharq mintaqasida sanoat zonalarini boshqarish va tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish boʻyicha eng muvaffaqiyatli modellardan biri Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi hisoblanadi. Mamlakatda erkin iqtisodiy zonalar faqat ishlab chiqarish faoliyatini joylashtirish hududi sifatida emas, balki logistika, xalqaro savdo, moliyaviy xizmatlar, bojxona, sugʻurta, innovatsion texnologiyalar, elektron tijorat va biznes konsaltingni yagona boshqaruv platformasiga birlashtiruvchi koʻp funksiyali iqtisodiy ekotizim sifatida rivojlantirilgan. Ayniqsa, “Jebel Ali Free Zone” va “Dubai Industrial City” sanoat infratuzilmasini diversifikatsiya qilish orqali

xalqaro investorlar uchun eng jozibador sanoat hududlaridan biriga aylangan. JAFZA ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mazkur erkin iqtisodiy hududda 11 mingdan ortiq kompaniya faoliyat yuritgan bo'lib, ular 157 ta davlatdan kelgan investorlarni birlashtirgan. Hudud orqali amalga oshirilgan neftdan tashqari savdo aylanmasi 713 milliard dirhamni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 15 foizga oshgan. Bundan tashqari, JAFZA Dubayning ishlab chiqarish, transport va savdo sohalariga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarining 74 foizini jalb qilgan [15]. Ushbu natijalar ishlab chiqarish infratuzilmasini logistika markazlari, bojxona xizmatlari, raqamli boshqaruv platformalari va moliyaviy institutlar bilan integratsiyalash sanoat zonalari raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

JAFZAning ishlab chiqarish sektoriga oid tahlillar ham tadbirkorlik infratuzilmasi diversifikatsiyasining iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. 2025-yil holatiga ko'ra, ishlab chiqarish klasterida 795 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, ular 73 dan ortiq davlatdan jalb qilingan kapitalni birlashtirgan va 66 mingdan ortiq ish o'rni yaratgan. Hududda ishlab chiqarish uchun 13,6 million kvadrat metr infratuzilmaviy maydon, mingdan ortiq yengil sanoat binolari, "build-to-suit" loyihalari hamda raqamli logistika xizmatlari mavjud. Bu ko'rsatkichlar infratuzilmaning ko'p tarmoqli rivojlanishi korxonalarning ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, ta'minot zanjirlarini qisqartirish va eksport faoliyatini kengaytirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Mazkur modelning asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarish korxonalari alohida xizmatlarni tashqi bozordan izlashga majbur emas. Bojxona rasmiylashtiruvi, transport-logistika, bank xizmatlari, sug'urta, sertifikatlashtirish, omborxona va eksportni qo'llab-quvvatlash tizimlari yagona hududda jamlangan. Natijada transaksion xarajatlar kamayadi, mahsulotni bozorga chiqarish muddati qisqaradi va investorlar uchun institutsional tavakkalchilik darajasi pasayadi. Ushbu yondashuv mamlakatimiz sanoat zonalarida ham tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligi uchta o'zaro bog'liq yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining integratsiyasi korxonalarning transaksion xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchidan, innovatsion va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi yangi texnologiyalarni joriy etish muddatini qisqartirib, mahsulot sifati va mehnat unumdorligini oshiradi. Uchinchidan, moliyaviy, eksport va konsalting xizmatlarining yagona ekotizimga birlashtirilishi investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi hamda sanoat zonalarining xalqaro bozorlardagi raqobat ustunligini kuchaytiradi. Mazkur natijalar tadbirkorlik infratuzilmasini diversifikatsiya qilishni alohida loyihalar yig'indisi emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat zonalarining raqobatbardoshligi faqat ishlab chiqarish quvvatlari, soliq imtiyozlari yoki investitsiyalar hajmi bilan emas, balki tadbirkorlik infratuzilmasining diversifikatsiyalashganlik darajasi va uning boshqaruv samaradorligi bilan ham belgilanadi. Infratuzilma elementlarining funksional jihatdan uyg'unlashuvi korxonalar faoliyati uchun qulay biznes muhitini shakllantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish va xalqaro bozorlardagi raqobat ustunligini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi [16]. Shu sababli sanoat zonalarini rivojlantirish siyosatida ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish bilan bir qatorda logistika, moliyaviy xizmatlar, raqamli platformalar, texnologiyalar transferi markazlari, sertifikatlashtirish laboratoriyalari, biznes-inkubatorlar va konsalting xizmatlarini yagona boshqaruv tizimiga integratsiyalash ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- sanoat zonalarida "kompleks tadbirkorlik infratuzilmasi" modelini joriy etish orqali logistika, moliyaviy xizmatlar, eksportni qo'llab-quvvatlash, muhandislik konsaltingi va innovatsion xizmatlarni yagona infratuzilmaviy platformaga integratsiyalash;
- sanoat zonalarini boshqarishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, IoT va GIS texnologiyalariga asoslangan raqamli monitoring tizimlarini joriy etish hamda infratuzilmaviy resurslardan foydalanish samaradorligini real vaqt rejimida baholash;
- davlat-xususiy sheriklik asosida logistika markazlari, sertifikatlashtirish laboratoriyalari, texnologiyalar transferi markazlari, biznes-inkubatorlar va sanoat akseleratorlarini tashkil etish orqali xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish;
- oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish hamda sanoat zonalarida innovatsion mahsulotlarni yaratish va tijoratlashtirishga yo'naltirilgan hamkorlik dasturlarini kengaytirish;

- sanoat zonalari faoliyatini baholashda investitsiya hajmi va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari bilan bir qatorda infratuzilma diversifikatsiyasi indeksi, biznes xizmatlari sifati, logistika samaradorligi, innovatsion faollik va eksport salohiyatini aks ettiruvchi kompleks indikatorlar tizimini joriy etish;
- hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini hisobga olgan holda sanoat zonalarida tarmoq yoʻnalishiga mos infratuzilmaviy xizmatlarni rivojlantirish va mahalliy yetkazib beruvchilarni sanoat kooperatsiyasi zanjirlariga faol jalb etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**


1. World Bank. *Enhancing Competitiveness through Industrial Infrastructure Development.* – Washington, DC: World Bank, 2025.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan.* – Paris: OECD Publishing, 2025.
3. https://stat.uz/img/news/miz_uz_p55913.pdf
4. https://stat.uz/img/news/analitika-vvp_zb-lotin_p30500.pdf
5. Asian Development Bank. *Asian Economic Integration Report 2025.* – Manila: ADB, 2025.
6. C. Ketels. *Cluster Policy: A Guide to the State of the Debate.* In: *Handbook of Cluster Policy.* – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2017.
7. M. Delgado, M. Porter, S. Stern. *Defining Clusters of Related Industries. Journal of Economic Geography.* – 2016. – Vol. 16(1). – P. 1–38.
8. H. Yeung. *Interconnected Worlds: Global Electronics and Production Networks in East Asia.* – Stanford: Stanford University Press, 2021.
9. R. Hausmann, C. Hidalgo, P. Balland. *The Atlas of Economic Complexity: Mapping Paths to Prosperity.* – Cambridge: MIT Press, 2019.
10. B. Xodiyev. *Innovatsion iqtisodiyot.* – Toshkent: IQTISODIYOT, 2022.
11. A. Granberg. *Osnovy regionalnoy ekonomiki.* – Moskva: Izdatelskiy dom VSHE, 2020.
12. A. Satubaldin. *Ekonomika Kazakhstana: strategiya industrialno-innovatsionnogo razvitiya.* – Almaty: Institut ekonomiki, 2021.
13. Polish Investment and Trade Agency. *Polish Investment Zone – Annual Investment Report 2025.* – Warsaw, 2025.
14. Malaysian Investment Development Authority (MIDA). *Malaysia Investment Performance Report 2025.* – Kuala Lumpur, 2026.
15. Jebel Ali Free Zone (JAFZA). *Annual Report 2025.* – Dubai: DP World, 2025; Dubai Industrial City. *Industrial Development Review 2025.* – Dubai, 2025.
16. International Labour Organization. *World Employment and Social Outlook: Trends 2025.* – Geneva: ILO, 2025.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**